

ANDRAGOGIKA TA'LIMINI BOSHQARISHDA KASBIY RIVOJLANISH MASALALARI

Sodiqov Rafikjon Turobjon o'g'li

Toshkent shahri, Uchtepa tumani

296 – sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi rahbari

Istiqbolli xodimlarni qiziqtirish, ularning motivatsiyasi va sadoqatini oshirish mumkin, agar ular o'z-o'zini rivojlantirish ehtiyojlarini qondira olsalar, agar ular o'zlarining martaba o'sishi imkoniyatlari haqida aniq tasavvurga ega bo'lsalar. Buning uchun kompaniya xodimlar uchun individual rivojlanish rejalarini ishlab chiqadi, ularni amalga oshirishdan xodimlarning o'zlari ham, tashkilot ham manfaatdordir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020 yil 6 noyabrda imzolangan “Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” PQ-4884-son Qaror¹ida xalq ta'limi tizimida uzluksiz kasbiy rivojlanish g'oyasini amalga oshirish uchun mutasaddi tashkilotlar oldiga bir qator vazifalar qo'yilgan. Mazkur vazifalar bugungi davr talablarini inobatga olgan holda qo'yilayotgani barchamizga ma'lum. Bizningcha ushbu vazifalarni to'laqonli amalga oshirish uchun quyidagi masalalarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Ular:

1. Kattalar ta'limi bilan bog'liq uzluksiz kasbiy rivojlanish (malaka oshirish)ning o'ziga xosligini anglash;

2. Kattalar ta'limi bilan bog'liq uzluksiz kasbiy rivojlanish (malaka oshirish) sohasida androgog kadrlar siyosatini to'g'ri yo'lga qo'yish kabilar.

Birinchi masala, kattalar ta'limi bilan bog'liq uzluksiz kasbiy rivojlanish (malaka oshirish)ning o'ziga xosligini anglash asosiy masala hisoblanadi. Binobarin, kattalar ta'limi va malaka oshirishning o'ziga xosligi, uning boshqa ta'lim bosqichlaridan farqli jihatlarini anglamay turib, keyingi ishlarni amalga oshirib bo'lmaydi. Jahon tajribasida kattalar ta'limining o'ziga xosligi bo'yicha ko'plab yondashuvlar ishlab chiqilgan. Mazkur yondashuvlar ichida Malkolm Shepard Noulz tomonidan ishlab chiqilgan kattalar ta'limining olti tamoyili o'ziga xos yondashuv hisoblanadi. Unga ko'ra:

1. Kattalar nima uchun o'rganayotganini bilishi lozim.
2. Kattalar o'zini mas'uliyatli, o'zini-o'zi yo'lga soluvchi shaxs deb biladi.
3. Kattalar malaka oshirish ta'limiga ma'lum darajada tajriba bilan keladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrda qaratilgan “Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” PQ-4884-son Qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.11.2020 y., 07/20/4884/1484-son.

4. Kattalar qachon o‘zi tayyor bo‘lganda, foydali va qulay vaqtda o‘rganishni xohlaydi.

5. Kattalar ta’lim olishni hayotiy maqsad va tajribalariga tayanib, muammolardan kelib chiqqan holda amalga oshiradi.

6. Kattalarni odatda shaxsiy omillar qiziqtiradi².

Bugungi kunda Malkolm Shepard Noulz tomonidan ishlab chiqilgan kattalar ta’limining olti tamoyili ko‘plab rivojlangan davlatlarning malaka oshirish sohasida qo‘llaniladi.

Albatta kattalar ta’limi va malaka oshirishning o‘ziga xosligini anglash hamda uni tashkil etish bo‘yicha xorij olimlarining yondashuvlari qatorida mamlakatimiz olimlarining ham qarashlari mavjud. Jumladan, mana shunday qarashlarda malaka oshirishning o‘ziga xosligini anglash hamda uni tashkil etish bo‘yicha to‘rtta tamoyil ilgari surilgan. Ular:

Birinchi – tenglik tamoyili. Unda kattalar ta’limidagi pedagog mashg‘ulot boshidanoq o‘zini tinglovchilar kabi, ya’ni, huddi ushbu guruh ishtirokchisi sifatida ko‘rsatishi kerak. Undan tashqari tenglik tamoyili darsning barcha jihatlariga: jihozlarning joylanishi (masalan. o‘quv stollarni qatorlar o‘rniga davra shaklida joylashtirish), pedagogning joyi (u guruh oldida turmasdan, balki davraga qo‘shilib o‘tirishi mumkin), so‘zlash uslubi (ma’ruzani o‘qimaslik balki suhbat olib borish), guruhga murojaat qilish («ishtirokchi» yoki «o‘rtoqlar» deb emas, balki «azizlar», «hamkasblar») kabilarga ham taaluqlidir.

Ikkinchi tamoyil – faol ijod. Ma’lumki, kattalar o‘z faoliyati davomida muayyan tajriba orttirishadi. Mazkur tajriba esa, o‘ziga xos stereotiplarni shakllantiradi. Shuning uchun ham pedagoglar garchi tajribali bo‘lsada, yangi vazifani eskicha usullarda bajarishga intiladi. Kattalar ta’limida faol ijod tamoyili muhim bo‘lib, u stereotiplarni yo‘q qilish hamda pedagoglarni yangi g‘oyalarni qabul qilishga tayyorlaydi.

Uchinchi tamoyil – shaxsiyatlilik. Kattalar ta’limida yosh xususiyatlari, ijtimoiylashganlik darajasi, xayotiy muammolari, sog‘lik va diqqatni jamlash bilan bog‘liq jihatlar yoshlar ta’limidan farqlanadi. Bu jihatlar ta’lim jarayonida ko‘zga tashlanishi tabiiy bo‘lib, mana shunday vaziyatlarda ham kattalar ta’limidagi har bir ishtirokchi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan «shaxs» ekanligini unutmaslik lozim bo‘ladi.

To‘rtinchi tamoyil – komfort (qulaylilik). Yuqorida aytilganidek, kattalar ta’limida yosh xususiyatlari, ijtimoiylashganlik, xayotiy muammolar, sog‘lik va boshqa jihatlar o‘ziga xos hisoblanadi. Mazkur omillarni ta’lim jarayoniga imkon qadar ta’sirini kamaytirish uchun kattalar ta’limida komfort (qulaylilik) – xonaning

² Swanson, R.A. & Holton III, E.F. 2001. Berrett-Koehler Publishers, Inc: San Francisco.

jihozlanishi, xavo xarorati, tanaffuslar oralig‘i, axborot yetkazish tezligi va metodikasi kabilarni inobatga olish zarur hisoblanadi³.

Xorij va mamlakatimiz olimlari tomonidan kattalar ta’limi va malaka oshirishning o‘ziga xosligini anglash bo‘yicha taklif etilayotgan yondashuvlar malaka oshirish ta’limi samaradorligini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi. Shu o‘rinda aytish lozimki, mazkur olimlarning yondashuvlariga qo‘shimcha sifatida kattalar ta’limi va malaka oshirishda faqat davlat ehtiyojlarini inobatga olmaslik, shu qatori malaka oshiruvchilarning malaka oshirishga bo‘lgan individual ehtiyojlarini ham inobatga olish va shunga yo‘naltirilgan mexanizmlarni ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Ma’lumki, katta yoshdagilar ta’limi sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassis andragog deb ataladi. Andragog – katta yoshdagilar bilan turli shakllarda o‘zaro munosabatda bo‘ladigan, ular tomonidan yangi bilimlar o‘zlashtirilishiga yordam beradigan va katta yoshli insonning ta’lim jihatdan faoliyatini ijtimoiy ahamiyatga ega maqsadlarga erishish uchun dolzarb qiladigan ijtimoiy vositachi sifatida faoliyat yurituvchi mutaxassis⁴.

Ta’kidlash kerakki, andragog kadrlarni tanlanishi bevosita ularning shaxsiy sifatlaridan emas, balki bilvosita kattalar ta’limi ishtirokchilarining xususiyatlaridan kelib chiqishi zarur. YA’ni, kattalar ta’limi ishtirokchilarining :

- ixtiyoriy ravishda majbursiz o‘qishga kelishi;
- o‘z tajribasi, maqsadlari, qadriyatlar yo‘nalishi asosida bilimlarni baholashi, tahlil qilishi, tanlab olishi va ichdan tuzatish kiritishi;
- o‘zini mustaqil shaxs sifatida anglashi;
- katta hayotiy (maishiy, kasbiy, ijtimoiy) tajriba zaxirasiga ega bo‘lib, o‘zi va hamkasblari o‘qishining muhim manbasiga aylanishi;
- o‘qishdan maqsadi o‘z hayotiy muhim muammolarini hal qilishga va muayyan aniq maqsadlarga erishishga intilishi;
- o‘zlashtirilgan bilimlar, mahoratlar, malakalar va fazilatlarini tezroq hayotga tatbiq qilishga intilishi;
- o‘quv faoliyati sezilarli darajada davriy, makoniy, maishiy, kasbiy, ijtimoiy omillar (sharoitlar) bilan bog‘liq bo‘lishi⁵ kabi jihatlar andragog kadrlar tanlashda

³ G.J.Tulenova. Katta yoshdagilarga ta’lim berish tamoyillari. A.Avloniy nomidagi XTTRMXQTMOI “Xalq ta’limi xodimlari malakasini oshirish tizimini islox qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (2020 yil 29 may) 158-160 betlar.

⁴ Uchebno-metodicheskoye posobiye «Osobennosti obucheniya vzroslix», Tashkent: IRK i PKSSPO 2011, 178 str.

⁵ A.X. Abdullayev, N.S. Rahimov, M.O. Xadayev. “Katta yoshdagi axolini o‘qitish markaziga: qadam-baqadam”, Toshkent, 2013 yil 55-bet.

ustuvor mezon qilib olinsa tanlangan kadrlarda kattalar ta’limi muhitiga tez moslashuv yuzaga keladi.

Albatta andragog kadrlarni tanlashda bevosita ularning o‘ziga qo‘yiladigan talablar ham mavjud. Ular:

- muayyan ixtisosliklar bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun zarur taalluqli malaka va tajribaga egaligi;
- andragog ta’lim prinsiplarini bilishi;
- axborotlar dunyosida o‘z yo‘nalishini topa bilishi;
- boshqa odamlar bilan o‘zaro munosabatlarga kirishish imkonini beruvchi kommunikativ madaniyat malakalariga ega bo‘lishi;
- ta’lim jarayonini samarali qiluvchi axborot o‘quv texnologiyalarini bilishi⁶ kabilardir.

Hozirda androgog xodimlar tanlashni aniq usullari mavjud bo‘lmaganligi uchun ham ularni tanlashda majmuaviy-kompleks (masalan, test o‘tkazish, suhbatlashish va “uchinchi” shaxslardan – nomzodni yetarli darajada yaxshi biladigan shaxslardan ma’lumotlar olish, natijalarini solishtirish kabi) usuldan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Kattalar ta’limi va malaka oshirish sohasida androgog kadrlarni tanlash mexanizmlari to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmasa, albatta yuqori darajadagi kompetensiya talab etiladigan faoliyatga quyi darajali kompetensiya egasi kelib qoladi. Noto‘g‘ri tanlov, odatda, xodimlarning qo‘nimsizligi oshib ketishiga yoki xodimlarning vakolatlari yetarli darajada bo‘lmasligiga olib keladi. Agar rahbar tanlagan xodim o‘ylagandek inson bo‘lib chiqmasa, yangi odamlarni tanlash uchun yana pul sarflashga to‘g‘ri keladi. Bu esa har qanday tashkilotning sarf-xarajatlari sezilarli oshishiga olib kelishi mumkin⁷.

Yuqoridagi tahlillar asosida xulosa qiladigan bo‘lsak, mamlakatimizdagi malaka oshirish muassasalarining samarali faoliyatini ta’minlash uchun bizningcha, kattalar ta’limining o‘ziga xosligini anglash hamda malaka oshirish sohasida androgog kadrlar siyosatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish lozim bo‘ladi. Birinchi masala, kattalar ta’limi va malaka oshirishning fundamental masalasi hisoblanadi. Shuning uchun ham ushbu yo‘nalishda xorij va mamlakatimiz olimlari tomonidan kattalar ta’limi va malaka oshirishning o‘ziga xosligini anglash bo‘yicha taklif etilayotgan yondashuvlarni va shu qatori malaka oshirishda faqat davlat ehtiyojlarinigina emas, malaka oshiruvchilarning

⁶ А.Х. Абдуллаев, Н.С. Раҳимов, М.О. Хадаев. “Катта ёшдаги аҳолини ўқитиш марказига: қадам-бақадам”, Тошкент, 2013 йил 56-бет.

⁷ А.Х. Абдуллаев, Н.С. Раҳимов, М.О. Хадаев. “Катта ёшдаги аҳолини ўқитиш марказига: қадам-бақадам”, Тошкент, 2013 йил 57-58-бетлар.

malaka oshirishga bo‘lgan individual ehtiyojlarini ham inobatga olish bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi. Ikkinchi masala, inson omili bilan bog‘liq masala bo‘lib, binobarin, kattalar ta’limi va malaka oshirish sohasida androgog kadrlar siyosatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘ymasdan turib ushbu malaka oshirish samaradorligini ta’minlab bo‘lmaydi. Ushbu yo‘nalishda yuqorida keltirilgan takliflarga e’tibor qaratish hamda androgog kadrlar tanlashni aniq usullari mavjud bo‘lmaganligi uchun ham ularni tanlashda majmuaviy-kompleks (masalan, test o‘tkazish, suhbatlashish va “uchinchi” shaxslardan – nomzodni yetarli darajada yaxshi biladigan shaxslardan ma’lumotlar olish, natijalarini solishtirish kabi) usuldan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-4884-son Qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 07.11.2020 y., 07/20/4884/1484-son.
2. Swanson, R.A. & Holton III, E.F. 2001. Berrett-Koehler Publishers, Inc: San Francisco.
3. Учебно-методическое пособие «Особенности обучения взрослых», Ташкент: ИРК и ПКССПО 2011, 178 стр.
4. A.X. Abdullayev, N.S. Rahimov, M.O. Xadayev. “Katta yoshdagi axolini o‘qitish markaziga: qadam-baqadam”, Toshkent, 2013 yil.